Katta adron kollayderda o`tkazilayotgan fizik tadqiqotlarga bag`ishlangan Xalqaro konferensiya o`z ishini yakunladi

2018 yil 15-sentyabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Yadro fizikasi institutida 4 kun davom etgan “Katta adron kollayderida o‘tkazilayotgan fizik tadqiqotlar” mavzusida Xalqaro konferensiya o‘z ishini yakunladi.

Yadro fizikasi instituti – Respublikada va Markaziy Osiyodagi eng yirik ilmiy-tekshirish maskani bo‘lib, unda yadro fizikasi, elementar zarralar fizikasi, qattiq jismlar radiatsiyaviy fizikasi va materalshunoslik, aktivatsion tahlil, radiokimyo ilmiy asbobsozlik sohalarida yuqori saviyada fundamental va amaliy izlanishlar olib boriladi.

Konferensiyada Katta adron kollayderida o‘tkazilayotgan fizikaviy tadqiqotlar natijalari va ularning istiqboli, takomillashtirilgan Katta adron kollayderida fizikaviy tadqiqotlar istiqbollari hamda uzoq kelajakka mo‘ljallangan CMS qayd qilish detektori modernizatsiyasining II fazasi kabi masalalari ko‘rib chiqildi.

Konferensiya plenar majlislarida dunyoning turli mamlakatlaridan kelgan yetakchi olimlarning 50 dan ortiq ma’ruzalari eshitildi.